**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA`LIM, FAN VA INNOVATSIALAR VAZIRLIGI**
**ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI**
**PREVENTIV TIBBIYOT, JAMOAT SALOMATLIGI VA SOG‘LIQNI SAQLASH MENEJMENTI KAFEDRASI**

**“ TASDIQLAYMAN “**
**Buxoro davlat tibbiyot instituti Registrator ofisi**
**boshqarma boshlig‘i**
**dots. ________ O.B.Raxmatov**
**________2026 yil**

# JAMOAT SALOMATLIGI FANIDAN MODUL DASTURI

| | | |
|---|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 900000 - | Sog’liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot |
| **Ta’lim sohasi:** | 910000 - | Sog’liqni saqlash |
| **Ta’lim yo’nalishlari:** | 60910200 | Davolash ishi (4 - kurs) |

Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan QS reytingida birinchi 300 talik ro’yxaga kiruvchi **UNIVERSITY OF CAMBRIDGE ( 5 QS World University Rankings 2025)** ta’lim dasturi asosida tayyorlandi. https://www.phs.group.cam.ac.uk/mphil-population-health-sciences/course-info/course-content/core-modules/#:~:text=Course%20content-,Core%20modules,Specialisation%20themes

**Buxoro-2026 yil**

<table>
<tr><td colspan="2">Fan/Modul kodi</td><td>O‘quv yili<br>2026-2027</td><td colspan="2">Semestr<br>8-9</td><td>Kreditlar<br>3</td></tr>
<tr><td colspan="2">Fan/modul turi<br>Majburiy</td><td colspan="3">Ta’lim tili<br>O‘zbek</td><td>Xaftadagi dars soatlari</td></tr>
<tr><td rowspan="2">1.</td><td>Fan/modulning nomi</td><td colspan="2">Auditoriya mashg‘ulotlar (soat)</td><td>Mustaqil ta’lim (soat)</td><td>Jami yuklama (soat)</td></tr>
<tr><td>Jamoat salomatligi.</td><td colspan="2">72</td><td>36</td><td>108</td></tr>
<tr><td>2.</td><td colspan="5">
I. Fanning mazmuni<br>
Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy maqsadlaridan biri tibbiyotda har tomonlama kamol topgan yuksak manaviyatli shaxsni tarbiyalab yetishtirish, uni ilmiy dunyoqarashini shakllantirishdir.<br>
Dastur O‘zbekiston Respublikasi Oliy tibbiy talim davlat standartlari, jamoat salomatligini o’rganish usullari va uslublarini shakllantirishdagi zamonaviy texnologiyalarni hisobga olgan holda tuzilgan.<br>
Jamoat salomatligi fanidan modul dasturi inson salomatligining qonuniyatlari aholi va fuqarolar salomatligini saqlash, yanada yaxshilashni yo‘llarini o‘rgatadi. Shu bilan birga insonlar salomatligiga ta’sir etuvchi omillarga qarshi kurashish va har bir aholi ongida tibbiy faollikni rivojlantirish, shuningdek kasalliklarga chalinmaslik yo‘llarini aholi ongiga singdirish to‘g‘risidagi qonuniyatlarni o‘rgatadi.<br><br>
Modulning maqsadi – Talabalarga aholi orasida kasallanish, aholini o‘rtacha umr davomiyligini uzaytirishga qaratilgan chora tadbirlarni o‘rgatishdir. Ushbu modul asosida zamonaviy texnologiyalarni qo‘llagan holda, talabalarni insoniyatni turli davrlarida tibbiyotni rivojlantirish masalalari va qonunlari, avvalgi davrlardagi buyuk olimlarning ilmiy meroslari O‘z.R.SS huquqiy asoslari, hozirgi zamonda jamoat salomatligi, biostatistikadagi zamonaviy texnologiyalarini o‘rgatish, nazariy, amaliy, uslubiy va tashkiliy bilimlarni hosil qilishdan iborat.<br>
Ushbu maqsadga erishish uchun fan moduli talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, biologik qonuniyatlardagi hodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.<br>
Modulning vazifalari:<br>
- talabalarga nazariy bilimlar, jamoat salomatligi fanini tahlil qilish usullari bilan tanishtirish;<br>
- aholi salomatligini baholovchi ko‘rsatkichlarni o‘rganish va ularni tahlil qilish;<br>
- monitoring kabi ishlarini to‘g‘ri tashkil etishni o‘rgatish.
</td></tr>
</table>

## II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

**1-mavzu: “Jamoat salomatligi” faniga kirish, sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar**

“Jamoat salomatligi va sog‘liqni saqlashni tashkil etish” fan sifatida tibbiyot, gigiena va jamiyat fanlari ichidagi o‘rni. Respublikada vaxorijiy davlatlarda “Jamoat salomatligi va sog‘liqni saqlashni tashkil etish” fanining shakllanishi va rivojlanishi. Butun jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (BJSST) tarkibi, BJSSTning asosiy yo‘nalishlari, sog‘liqni saqlashning turli masalalarini yechishda BJSST o‘rni va ahamiyati, O‘zbekiston Respublikasini BJSST faoliyatida ishtirok etishi. Zamonaviy bosqichda sog‘liqni saqlashni tashkil etish.O‘zbekiston Respublikasi aholi salomatligini muhofaza qilishningqonunchilik asoslari.

**2- mavzu: Tibbiyot statistikasi asoslari.**

Statistikaning nazariy asoslari va mazmuni. General va tanlab olingan majmualar haqida tushuncha.Tibbiy ma’lumotlarga ishlov berishda asosiy statistik usullar. Statistik tadqiqot bosqichlari. Mutloq, nisbiy, o‘rtacha miqdorlar, ularni tibbiyotda qo‘llanilishi.

**3- mavzu: Aholi orasida demografik jarayonlarni o`rganish usullari.**

Demografiya, uning tibbiyotda va sog‘liqni saqlashdagi o‘rni.Tibbiy ijtimoiy jihatlari. Demografik portlash, krizis tushunchalari. Aholi o‘sishining muammolari. Oilani oqilona rejalashtirish. Jismoniy rivojlanish - aholi salomatligini ko‘rsatkichi sifatida. Jismoniy rivojlanishni o‘rganishning sog‘liqni saqlashdagi ahamiyati. Jismoniy rivojlaninshning mahalliy va regional standartlari. Jismoniy va jinsiy rivojlanishning akseleratsiyasi - ijtimoiy-gigienik muammo sifatida.

**4-mavzu:Sog`lom turmush tarsi asoslari. Aholi kasallanishi va uni o`rganish usullari, ijtimoiy-tibbiy qirralari.**

Aholining kasallanishini o‘rganishda davlat statistikasining ahamiyati. Kasalliklar, jarohatlar va o‘lim sabablarining tasnifi. Aholini kasallanishini o‘rganishning usullari va uslublari, kasallanishni o‘rganishda ekspert baholash, aholini kasallanish sabablarini o‘rganish.Muhim noinfeksion kasalliklarning tibbiy-ijtimoiy aspektlari (yurak qon-tomir kasalliklari,onkopatologiya, travmatizm). Asab-ruhiy kasalliklar, alkogolizm,narkomaniya, toksikomaniya tibbiy-ijtimoiy muammo sifatida.

**5-mavzu: Sog`liqni saqlash tizimida birlamchi tibbiy sanitariya yordamni tashkil etish.**

BTSYO ko‘rsatadigan muassasalar,vazifalari, strukturasi. BTSYO ni tashkil etish, baholash va taxlil qilish. Umumiy amaliyot shifokorini asosiy vazifalari. UASH ni axolining turli kontingentlari bilan ishlashda asosiy xususiyatlari. UASH nining ish prinsipi va ish uslublari. UASH ni ish faoliyatini baholaydigan ko‘rsatkichlar. UASH ni ish faoliyatida qo‘llaniladigan xisobiy va xisobot xujjatlar. Tez tibbiy yordam ko‘rsatishni tashkil etish va uning axolining barcha qatlamlariga yordam ko‘rsatishning muh im tomonlari.

**6-mavzu: Aholiga statsionar - kasalxona xizmatini tashkil etish.**

Bemorlarga xizmat ko‘rsatishda oilaviy poliklinika va kasalxona orasidagi uzviy bog‘liqlik shakllari. Kasalxona tarkibi. Bemorlarni kasalxonaga tushishi va chiqarilishi tartibi. Qabul bo‘limining tarkibi va vazifalari. Kasalxonada o‘rin fondidan foydalanish choralari. Kasalxona va oilaviy poliklinikaning tibbiy qayd xisobot xujjatlari.

**7-mavzu: Vaqtinchalik mehnat qobiliyatini aniqlashning vrachlik ekspertizasini tashkil etish.**

Vaqtinchalik mehnat qobiliyatini aniqlashning vrachlik ekspertizasini tashkil etish. Turg‘un holatdagi mehnat qobiliyatini aniqlashning vrachlik ekspertizasini tashkil etish. Ayollarga akusherlik va ginekologiya tibbiy yordam ko‘rsatishni tashkil etish.

**8-mavzu: Qishloq aholisiga tibbiy yordamni tashkil etish.**

Qishloq axolisiga tibbiy yordam kshsatishning o‘ziga xosligi. Shaxar va qishloqlarda ijtimoiy – iqtisodiy va madaniy turmush orasidagi farqlarni yo‘qotish choralari bo‘yicha qishloq sharoitida tibbiy yordam ko‘rsatishni mukammallashtirish bo‘yicha vazifalar. Tuman tibbiyot birlashmasining maqsadi va vazifalari. QOP ning maqsadi va vazifalari. Ko‘p tarmoqli viloyat tibbiyot markazi, maqsadi va vazifalari.

**9-mavzu: Onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish.**

Onalar va bolalarga davolash – profilaktika yordamini ko‘rsatish tizimini boshqarish tartibi. Onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish tizimini tarmoqlor va kadrlari xaqidagi umumiy axborotlar, tibbiy – akusherlik yordamini ko‘rsatishni tashkillashtirish. Ayollar va bolalarga xizmat ko‘rsatuvchi muassasalarning asosiy turlari va ularning ishini tashkillashtirish tamoyillari; akusherlik kompleksi uning turlari va vazifalari. Ayollar salomatligini muhofaza qilishda asosiy ijtimoiy – gigienik muammolar; abort, onalar o‘limi, ko‘p bolalik, gigekologik kasalliklar va bepushtlik muammolari. Bolalar va onalar o‘limining oldini olish chora- tadbirlari.

**III. AMALIY MASHG‘ULOTLARI BO‘YICHA KO‘RSATMA VA**

**TAVSIYALAR**

1- **mavzu.** Jamoat salomatligi moduli, asosiy vazifalari va usullari. Sog‘liqni saqlash, asosiy tushunchalar va tamoyillar. Tibbiyot statistika, uning sog`liqni saqlashdagi ahamiyati, tibbiyot statistikasi turlari va uni asosiy vazifalari.

2- **mavzu.** Statistik tadqiqotlarni tashkil etish va uni bosqichlari. Nisbiy miqdorlar va ularni tibbiyotda o‘llanilishi. O`rtacha miqdorlar, turlari, hisoblash usullari, tibbiyotda qo`llanilishi. Statistik tadqiqot natijalarining ishonchlik darajasini baholash.

3- **mavzu.** Korrelyatsiya koeffitsienti, uning baholash usullari, statistik tahlil etishda qo`llanilishi. Grafik tasvirlar va ularning qo‘llanilishi.

4- **mavzu.** Standartlashtirish, standartlashtirilgan ko`rsatkichlarining ahamiyati, ularni hisoblash. Dinamik qatorlar, turlari, ko`rsatkichlari va statistik tahlil etishda qo`llanilishi.

5- **mavzu.** Aholi orasida demografik jarayon va demografik ko`rsatkichlarni hisoblash usullari. Aholi kasallanishini o’rganish usullari.

6- **mavzu.** Aholining jismoniy rivojlanishi va uni o‘rganish usullari. Aholi kasallanish ko`rsatkichlari va ularni hisoblash. Xalqaro kasalliklar tasnifi.

7- **mavzu.** O’zbekiston Respublikasida majburiy ijtimoiy tibbiy sug'urta.

8- **mavzu.** Vaqtinchalik mehnat qobiliyatini aniqlashning vrachlik ekspertizasini tashkil etish. Turg‘un holatdagi mehnat qobiliyatini aniqlashning vrachlik ekspertizasini tashkil etish. Nogironlik ko‘rsatkichlari va ularni hisoblash usullari. Aholi salomatligini baholashda nogironlik ko‘rsatkichlarini o‘rni.

9- **mavzu.** Ijtimoiy-iqtisodiy omillarning turli aholi salomatligi ko'rsatkichlariga ta'siri.

10- **mavzu.** Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami. Ambulatoriya-poliklinika muassasalarining ish faoliyatini tashkil qilish. Oilaviy shifokor ishini tashkil qilish. Oilaviy poliklinikaning ish faoliyatini tashkil qilish. Davolash profilaktik muassasalarining nomenklaturasi, strukturasi.

11- **mavzu.** Kasalliklarning oldini olish konsepsiyasi va asosiy yondashuvlar (birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi profilaktika).

12- **mavzu.** Sog'lom turmush tarzini (HLS) targ'ib qilish va uni saqlashga ta'sir qiluvchi omillar.

13- **mavzu.** Sog'liqni saqlash mutaxassislari va tashkilotlarining sog'liqni saqlashni mustahkamlash va oldini olishdagi roli.

## IV. MUSTAQIL TA’LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

Talabalarni mustaqil ta’lim shaklini tashkil etishga qo‘yilgan talablar O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 29-apreldagi 136-sonli “Oliy ta’lim muassasalari talabalari mustaqil ta’limini tashqil etish bo‘yicha namunaviy tartibini tasdiqlash to‘g‘risida”gi buyrug‘i asosida ishlab chiqilgan.

Mustaqil ta’limni baholash semestr davomida amalga oshiriladi, berilgan topshiriqlar, bajarilgan ishlar elektron platforma, ishchi daftarlar va x.q. ilova qilish orqali inobatga olinadi.

**Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. Jamoat salomatligi va sog‘likni saklashni tashkil etish fanning o‘rni, asosiy komponentlari. O`zbekiston Respublikasi sog`liqni saqlash asoslari. Asosiy prinsiplari, vazifalari. Sog`liqni saqlash tizimidagi asosiy qonun va meyoriy hujjatlari.
2. Statistika tadkikotlar tashkil etish va uning boskichlari.
3. Nisbiy miqdorlar, ularning tibbiyotda qo‘llanilishi. O‘rtacha miqdorlar, turlari, hisoblash usullari, tibbiyotda qo‘llanilishi.
4. Statistik tadqiqot natijalarining ishonchlik darajasini baholash.
5. Grafik tasvirlar, ularning qo‘llanilishi. Korrelyatsiya koeffitsienti, uning baholash usullari, statistik tahlil etishda qo‘llanilishi. Dinamik qatorlar, turlari, ko‘rsatkichlari, statistik tahlil etishda qo‘llanilishi. Standartlashtirish, standartlashtirilgan ko‘rsatkichlarining ahamiyati, ularni hisoblash.
6. Aholi orasida demografik jarayon va demografik ko‘rsatkichlarni hisoblash usullari. Aholining jismoniy rivojlanishi va uning o‘rganish usullari.
7. Aholi kasallanishlari ko‘rsatkichlari va ularni hisoblash. Xalqaro kasalliklar tasnifi. Nogironlik ko‘rsatkichlari va ularni hisoblash usullari. Aholi salomatligini baholashda nogironlik ko‘rsatkichlarining o‘rni.
8. Ijtimoiy-gigienik ahamiyatga ega bo‘lgan kasalliklarni o‘rganish, ularni kamaytirish borasida UAShning roli. O‘zbekistonda ko‘p uchraydigan
9. yuqumli bo‘lmagan kasalliklarni epidemiologiyasini o‘rganish va ularni tahlil qilish.
10. Sog`lom turmush tarsi asoslari. Maqsadli guruhlar, valeologik tamoyillari.
11. Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami. Ambulatoriya-poliklinika muassasalarining ish faoliyatini tashkil qilish. UASh ishini tashkil qilish, UASh asosiy vazifalari, ish faoliyatini tahlili. Dispanserizatsiya.
12. Qishloq aholisiga tibbiy xizmatni tashkil qilish.Shaxar aholisiga tibbiy xizmatni tashkil qilish. Oilaviy poliklikaning ish faoliyati, asosiy vazifalari, ish usuli, hisobiy va hisobot hujjatlarni yuritish xussusiyatlari.

13. Statsionar muassasalarining ish faoliyatini tashkil qilish. Statsionar ish faoliyatining asosiy ko`rsatkichlarini hisoblash va tahlil qilish usullari.
14. Onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish.

**Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning shakllari:**

Ushbu o‘quv fani bo‘yicha mustaqil ishlarni tayyorlashda muayan fanning xusussiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

- darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarning mavzularini o‘rganib chiqish;
- Samarqand davlat tibbiyot universitetining masofaviy ta'lim platformasi (mt.sammu.uz)da joylashtirilgan materiallardan foydalanish;
- tegishli mavzular bo‘yicha maxsus (shu jumlardan, ilmiy maqolalar, monografiyalar) adabiyotlarni o‘rganish;

mustaqil o‘zlashtirilgan mavzulardan taqdimot tayyorlaydi va himoya qiladi
- referat tayyorlaydi va himoya qiladi
- organayzerlar tuzadi
- muammoga yo‘naltirilgan vaziyatli masalalar yechadi

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlar modul tizimida turli xil keys, vaziyatli masala va krossvordlar shaklida amalga oshiriladi.

*Izoh: Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar mavzulari fan doirasida o‘zgarishi mumkin.

**VI. Ta’lim natijalari/ kasbiy kompetensiyalar**
**8-9- semestr:**

**Talaba bilishi kerak:**

-sog`liqni saqlashni isloh qilish va yangi xo`jalik mexanizmiga o`tish bilan bog`liq bo`lgan muammolar;
- jamoat salomatligini rivojlantirishning asosiy davrlari va ilmiy-amaliy muammolarini;
- aholiga tibbiy xizmatni tashkil qilish;
- insonni insonga, jamoaga, atrof-muhitga belgilovchi nazariy va hukukiy meyorlari **haqida tasavvurga ega bo`lishi;**
- aholi salomatligiga ta`sir etuvchi omillarni, asosiy mezonlari: ijtimoiy muhit, xayot tarzi, atrof-muhit omillarini **bilishi va ulardan foydalana olishi.**

---

**Modul yakunlaganda talaba bajara oladi:**

- sanitariya-statistik tekshiruv usullarini qo`llash;
- aholi salomatligini o`rganish uslublari va ko`rsatkichlarining taxlili;
- sog`liqni saqlashni asosiy hukukiy hujjatlari;
- aholiga tibbiy yordam ko`rsatishni isloh qilish;
- O`zbekiston Respublikasi sog`liqni saqlash tizimni isloh qilish

| | |
|---|---|
| | tamoyillari;<br>• aholiga tibbiy yordam va sanitariya-epidemiologik xizmatni tashkil etishda o`rta tibbiy xodimlar vazifalari: patronaj ishlarini amalga oshirish;<br>• mexnat kobiliyatini ekspertizasini tashkil qilishda hamshiralar o`rnini axamiyati to`g`risidagi **ko`nikmalariga ega bo`lishi kerak;**<br>• davolash-profilaktika muassasalarining faoliyatini tahlil qilishda asosiy ko`rsatkichlarni qo`llash;<br>• sog`liqni saqlashda sifatni nazorat qilish;<br>- aholini gigienik tarbiyalash va sog`lom turmush tarzini targ`ib qilish bo`yicha tadbirlar o`tkazish **malakalariga ega bo`lishi kerak.** |
| **4.** | **VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari**<br>"Aqliy hujum", "Klaster", "Charxpalak",<br>• Birgalikda o'qiymiz", "Sinkveyn"; "T-sxemasi";<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar;<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| **5.** | **VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot institutida talabalari bilimini baholashda "Institutida ta'limning kredit-modul tizimi asosida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi Nizom" asosida amalga oshiriladi.<br>Joriy nazorat shaklida berilgan vazifa va topshiriqlarni har darsda baholash,oraliq nazorat, og'zaki yakuniy nazorat, yakuniy test nazorati bo'yicha muvoffaqiyatli topshirish. |
| **6.** | **Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari**<br>**Asosiy adabiyotlar**<br>1. B.Mamatkulov // Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlashni boshqarish, "ILM ZIYO" Toshkent. 2019 y.<br>2. B.Mamatkulov //Tibbiyot statistikasi (biostatistikasi) asoslari. Toshkent. 2005 y.<br>3. Б.Маматкулов // Общественное здоровье и управление здравоохранением "ILM ZIYO" Тошкент. 2019 й.<br>4. В.А. Медик, В.К. Юрьев. Общественное здоровье и здравоохранение. 3-е изд., перераб. И доп. Учебник – ГЭОТАР-Медиа-2014.<br>5. Методы научных исследований в медицине и здравоохранении/ Элизабет Де Пой, Лаура Н. Гитлин; пер. с англ. Под ред. В.В. Власова. – М.: ГЭОТАР-Медиа, 2017. – 432 с.:ил. |

| | |
|---|---|
| | 6. Общественное здоровье и здравоохранение: руководство к практическим занятиям: учебное пособие / В.А. Медик, В.И. Лисицин, М.С.Токмачев. – 2-е изд., испр. и доп. – М.: ГОЭТАР-Медиа , 2018. – 464 с.: ил.<br>7. Общественное здравоохранение: учебник /А.А. Аканов, К.А. Тулебаев, М.А. Камалиев и др. – М: Москва: Литерра, 2017. – 496 стр.<br>**Qo‘shimcha adabiyotlar**<br>1. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қаътий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. 2017 й. Ўзбекистон матбуот ва ахборот агентлигининг “Ozbekiston” нашриёт матбаа ижодий уйи.<br>2. Принципы клинической практики, основанной на доказанном. Рабочая группа по доказательной медицине под ред. Гордона Гайятта, Драммонда Ренни., М., 201 3.<br>3. Т.Гринхальх «Основы доказательной медицины», М., 2006<br>4. Ўзбекистон Республикаси Призеденти фармонлари, вазирлар маҳкамаси қарорлари, ССВ буйруқлари.<br><br>**Axborot manbalari**<br>1. www. Pub.med, Medline<br>2. www.tma.uz<br>3. www.gov.uz<br>4. www.minzdrav.uz<br>5. www.ziyonet.uz<br>6. http:// zdrav.ru<br>7. http://www.medvestnik.ru<br>8. www.who.int<br>9. http: //catalog.fmb.ru/Uzbekistan.shtml<br>10. http:// www.ozz.medexplorer.ru/vte.php<br>11. www.bsmi.uz |
| **7** | Fan/modul dasturi Buxoro davlat tibbiyot instituti tomonidan ishlab chiqilgan.<br>Fan/modul dasturi Buxoro davlat tibbiyot institutining<br>“ ” -sonli buyrug‘i (buyruqning -ilovasi) bilan tasdiqlangan.<br><br>**Ofis registrator boshqarma boshlig‘i: O.B.Raxmatov** |

| | |
|---|---|
| 8 | **Fan/Modul uchun ma'sullar:**<br>**Atayeva M.A -** BuxDTI Preventiv tibbiyot, jamoat salomatligi va sog'liqni saqlash menejmenti kafedrasi mudiri, dotsent<br><br>**Yuldashova Sh.T.** –BuxDTI Preventiv tibbiyot, jamoat salomatligi va sog'liqni saqlash menejmenti kafedrasi dotsenti, PhD. |
| 9 | **Ichki taqrizchi:**<br>**Qayumov X.N- BuxDTI Xalq tabobati kafedra mudiri, DSc**<br>**Tashqi taqrizchi:**<br>**Iskandarova Sh.T. - TDTU 2-son jamoat salomatligi va sog'liqni saqlash menejmenti kafedra mudiri, professor** |